FARG‘ONA VILOYATI YOZYOVON TUMANI HOKIMINING QARORI

150600, Yozyovon tumani Mustaqillik ko`chasi 1-uy, tel: (73) 412-15-15, www.yozyovon.uz

2023 - yil 16 - fevral 20-11-165-Q/23 Yozyovon tuman hokimligi

Tumandagi Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining guruhlari va ish soatlarini belgilash to‘g‘ri

Tumandagi yosh avlodni sog‘lom va barkamol etib, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ-595-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-may kungi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 391-sonli hamda 2020-yil 9-mart kungi “Bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 132-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-may kungi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 391-sonli hamda 2020-yil 9-mart kungi “Bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 132-sonli qarorlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin hamda tuman maktabgacha ta’lim bo‘limining 2020 yil 9 yanvar kungi 01-01/6-6-sonli xatlari inobatga olinsin.

1.Maktabgacha ta’lim bo‘limi tasarrufidagi 2,3,4,5,6,7,8,9,10,11,12, 13,14,15,16,17, 18,19,20,21,22,23,24,25,26,27-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini hamda ulardagi mavjud jami 183 ta guruhlarning ish soatlari, 2023-yilning 1-yanvar kundan boshlab besh ish kunidan iborat bo‘lgan 9 soatlik ish

tartibida;

Maktabgacha ta’lim bo‘limi tasarrufidagi 1-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti hamda ulardagi mavjud jami 10 ta guruhlarning ish kunlari va soatlari 2023-yilning 1-yanvar kundan boshlab haftasiga besh ish kunidan iborat 10,5 soatlik ish tartibida;

Maktabgacha ta’lim bo‘limi tasarrufidagi 1,2,5,6,7,11,14,16,18,20,23-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini hamda ulardagi mavjud jami 19 ta guruhlarning ish soatlari, 2023 yilning 1 yanvar kundan boshlab besh ish kunidan iborat bo‘lgan 4,5 soatlik ish tartibida joriy etilishi belgilab qo‘yilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-mart kungi “Bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 132-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida;

Maktabgacha ta’lim bo‘limi tasarrufidagi 1-,2-,12-,15,-16,20-,23-,24-sonli maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etilgan jami 18 ta boshlang‘ich ta’limga majburiy bepul bir yillik tayyorlov guruhlari 2023-yilning 1-yanvar kundan boshlab haftasiga besh ish kunidan iborat 3-4 soatlik ish tartibida belgilansin.

3. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari M.Xatamov hamda tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limi mudiri X.Sarimsaqovalar zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **D.T.Djalilov**